



79. Hajm birliklari

Yondosh mavzu:
qog'oz va yog'och.



Kub santimetr,
kub detsimetr.



1. Bir xil yog'och kubiklardan turli ko'rinishdagi shakllar yelimlandi. Agar bitta kubikning massasi 62 gramm bo'lsa, har bir shaklning massasi qanday bo'ladi? Qaysi shakl eng og'ir?







2. Qaysi o'ramdagi qog'oz ko'proq? O'z xulosangizni tushuntiring.



Shaklning hajmi – bu hajmli shaklning ichiga sig'adigan o'lchovlar soni. Ko'pincha tomonlari 1 mm, 1 cm, 1 dm bo'lgan kublar o'lchov birligi sifatida olinadi. Bunday kublarning hajmlari mos ravishda 1 mm^3 , 1 cm^3 , 1 dm^3 kabi belgilangan.

3. Bitta kichik kubikning hajmi 1 cm^3 . Ushbu kuboidlar (to'g'ri burchakli parallelepipedlar)ning hajmini toping.




 — 1 cm^3



4. Kichik kubikning tomonlari uzunligi 1 cm, hajmi esa 1 cm^3 . Tomoni 1 dm bo'lgan kubning hajmini toping.



Barcha hajm birliklari o'zaro bog'liq.



5. Ko'rsatilgan o'lchov birliklarida yozing.

$$1 \text{ dm}^3 = \square \text{ cm}^3$$

$$4 \text{ dm}^3 = \square \text{ cm}^3$$

$$1 \text{ cm}^3 = \square \text{ mm}^3$$

$$8 \text{ cm}^3 = \square \text{ mm}^3$$

$$1 \text{ dm}^3 = \square \text{ mm}^3$$

$$5 \text{ dm}^3 = \square \text{ mm}^3$$



6. Qulay o'lchov birligiga keltirib hisoblab.


$$1 \text{ cm}^3 + 124 \text{ mm}^3 + 8 \text{ cm}^3 + 3 \text{ mm}^3 - 5 \text{ cm}^3 + 420 \text{ mm}^3$$

$$16 \text{ dm}^3 + 308 \text{ cm}^3 : 6 + 1\,235 \text{ cm}^3$$

$$(2 \text{ m}^3 - 1 \text{ m}^3 + 7 \text{ dm}^3) : 3$$



7. Taxtalar to'rtburchak shaklidagi bloklarga taxlangan. Har bir blokning pastki qatorida 6 tadan taxta bor, bloklarda 9 tadan shunday qatorlar mavjud. Bitta blokda nechta taxta bor? 7 ta shunday blokda nechta taxta bor?




79. Hajm birliklari




8. Amallarni algoritm bo'yicha bajaring. Javoblarni o'sish tartibida joylashtiring. "Qog'oz" so'zi bizga italyan tilidan kirib kelgan. Uning tarjimasini taxmin qila olasizmi?

x	378	317	174	110	329	121
y						
	O	X	K	P	L	O



9. Chizmada solning daryo bo'ylab bosib o'tgan yo'li tasvirlangan. Chizmadagi chiziq uzunligi qanday?



Chizmadagi bir santimetr 2 km yo'lga to'g'ri keladi. Sol qanday masofani bosib o'tgan?



10. Stol ustida beshta bir xil o'ram qog'oz bor. Barcha o'ramlardagi varaqlar miqdori teng. Har bir o'ramdan 60 tadan varaq olingandan so'ng, oldin ikkita o'ramda qancha qog'oz bo'lgan bo'lsa, shuncha qog'oz qoldi. Dastlab har bir o'ramda necha varaqdan qog'oz bo'lgan?



11. Eng kichik hajm birligiga keltirib hisoblang.

$$4 \text{ dm}^3 \ 124 \text{ cm}^3 - 2 \text{ dm}^3 \ 735 \text{ cm}^3$$

$$2 \text{ dm}^3 \ 5 \text{ cm}^3 : 5$$

$$7 \text{ cm}^3 \ 105 \text{ mm}^3 + 5 \text{ cm}^3 \ 72 \text{ mm}^3$$

$$6 \text{ cm}^3 \ 176 \text{ mm}^3 \cdot 20$$



12. Yupqa qog'oz o'ramida 200 varaq, qalin qog'oz o'ramida esa undan 300 varaq ko'p qog'oz bor. Xonada 7 ta yupqa va 4 ta qalin qog'oz o'rami bo'lsa, jami necha varaq qog'oz bor?